

## **Inkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish modeli**

Azamat Muhammadjon o'g'li Siddiqov  
Namangan davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish modeli eng umumiy ma'lumotdan ma'lum bir ko'nikmaga qadar yaratilishi kerak. Eng keng tarqalgan - bu nazariy tahlil qilish uchun faktlar va hodisalarni o'rganish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan fikrlash va harakat qilish qobiliyatidir. Umumiy va o'ziga xos ko'nikmalarning asosi - bu empirik va nazariy darajalarda davom etadigan o'tish jarayoni.

**Kalit so'zlar:** integraatsiya, pedagoglar, inklyuziv ta'lim, pedagogik modeli, diagnostika, metod, ob'yekt, faoliyat, layoqat, kommunikabellik, qobiliyatiga

## **A model for forming positive attitudes towards social life in students with intellectual disabilities**

Azamat Muhammadjon oglu Siddikov  
Namangan State Pedagogical Institute

**Abstract:** the model for the formation of positive attitudes of students with limited incontinence to social life should be created from the most general information to a specific skill. The most common is the ability to think and act, which is associated with the ability to study facts and phenomena for theoretical analysis. The basis of general and specific skills is the transition process, which continues at the empirical and theoretical levels.

**Keywords:** integration, educators, inclusive education, pedagogical model, diagnostics, method, object, activity, competence, communicability, ability

Inkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim-tarbiyasi ularni o'qish va yozishga o'rgatish muammolarini ijtimoiy hayotga moslashtirishga ko'mak berish, bu ishlarni samarali amalga oshirish, maxsus soha xodimlari hamda nogiron o'quvchilar otalariga amaliy yordam berish kabi masuliyatli ishlarni qatoriga kirishi mumkin.

Inkoniyati cheklangan o'quvchilarni asosiy muamolarini ular o'zlari yashab turgan muhitdan, oiladan uzoqda ta'lim tarbiya berish bilan hal qilib bo'lmaydi. Jamiyat o'z a'zolariga javobgarlikni o'z bo'yniga olmas ekan, cheklab qo'yilgan huquq

va imkoniyatlarni amalga oshirish uchun ularga imkoniyat va qulaliklarni amalga oshirish lozim.

Maxsus ehtiyojli o'quvchilarni ta'lim tarbiyasida tenghuquqlilik muammosini hal etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Ammo bugungi kunda ham juda ko'plab o'quvchilar turli xildagi sabablarga ko'ra ta'limdan chetda qolib ketmoqdalar. Inklyuziv ta'limga jalb qilish orqali biz tashkiliy, ilmiy-uslubiy choralarni amalga oshirish va mutaxassislarini tayyorlashni, malakasini oshirishni chora tadbirlarni ham ishlab chiqish lozim. Alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni umumta'lim muassasalariga jalb qilishning ikki asosiy omili bor:

Birinchidan, alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar ham sog'lom o'quvchilar bilan birgalikda o'zaro faoliyat ko'rsatishlari mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa, maxsus ehtiyojli o'quvchilar ijtimoiy tomondan himoyalanganadilar, sog'lom o'quvchilar esa ijtimoiy adolat va tenglikning tan olinishi buyukligini nogiron o'quvchilarga nisbatan yanada mehribon va e'tibor bilan munosabatda bo'lishni his etadilar.

Ikkinchidan, nogiron o'quvchilar ham sog'lom tengdoshlari bilan yonma-yon o'qish, tarbiyalanish huquqiga ega ekanligi.

Bu kabi ishlarni muvaffaqiyatini amalga oshirish uchun xar bir davlatni qonunlarida aks etilishi zarur. Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarga ta'lim berishda, ota-onalar, mahallalar pedagoglar, mutaxassislar hamkorligida faoliyat ko'rsatishlarini talab qilinadi va majburiy shart hisoblanadi.

Inkoniyati cheklangan o'quvchilar ham sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'z qobiliyat darajasida faoliyat ko'rsatish, ta'lim olishi, kasb-xunar o'rganishi va rivojlanishi mumkin. Inklyuziv ta'lim maqsadga muvofiq tarzda tashkil etilsa maxsus yordamga muhtoj o'quvchilar ijtimoiy tomondan himoyalanganadilar, ijtimoiy hayotda teng xuquqli ekanligi, o'z tengdoshlari bilan birga bilim olishlari va ko'nikmalarni egallashlari mumkinligini his eta oladilar.

Inkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun tashkil etilgan integratsion-maxsus, yopiq turdagi muassasalarda o'quvchilardagi mavjud nuqsonlar ancha-muncha yuqori darajada korreksiyalansada, ammo o'quvchilarning maktab jamoasidagi tor doiraga tushib qolishlari natijasida ijtimoiy jamiyatga moslashishi. Maxsus maktablar mana shu jihatlari bilan juda katta kamchiliklarga ega. Bundan tashqari maxsus ehtiyojli o'quvchilarni barcha qatori keng jamoatchilik davrasidan ajratgan holda yashashlari ham demokratiya nuqtai nazariga to'g'ri kelmaydi. Chunki maxsus ehtiyojli o'quvchilar ham barcha qatori haq-huquqlarga ega. 1990 yilda Djonpiyeyen (Tailand) o'tkazilgan koferensiya da ham ko'rishimiz mumkin. Bu konferensiya "Ta'lim hamma uchun" maqsadini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, unda 155 ta davlat vakillari va 150 dan ortiq nodavlat tashkilotlaridan kelgan mutaxassislar qo'shildilar. Tahlillar shuni

ko'rsatadiki, taxminan 10-15% o'quvchilar maxsus ta'limga muhtoj ekanligi faktlar bilan asoslandi.

Djomtiyen (Tailand)da o'tkazilgan konferensiya asosida "Ta'lim hamma uchun" shiorini qo'llab-quvvatlash va amaliyotga tadbiriq qilishni tahlil etish maqsadida 1994 yilda YuNESKO tashkiloti va Ispaniya davlati bilan hamkorlikda Salamanka - Ispaniya umumjahon konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu konferensiya ishtirokchilarining maqsadi va vazifasi butun dunyodagi alohida yordamga muhtoj o'quvchilarning umumta'lim muassasalarida ta'lim olishlari uchun qulayliklar yaratish, maktabda o'qitish vazifasini amalga oshirish uchun maktab islohotlarini o'tkazish zarurligi to'g'risida fikr-muloxazalar yuritishga qaratilgan edi.

Alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni umumta'lim muassasalariga jalb etishga bo'lgan ehtiyoj bu shunda namoyon bo'ladiki, Afrika va Janubiy Sharqiy Osiyodagi integratsiyalashgan ta'lim dasturlari asosida yakuniy ish hujjatlari o'rganilib chiqildi. Natijada har bir davlatlarning Ta'lim Vazirliklarida maxsus maktablar qoshida maxsus bo'limlar faoliyati muqobil sifatida inklyuziv ishlash uslublari qabul qilinmoqda. O'quvchilarni oilasidan, uyidan uzoqda bo'lgan iternatlarga joylashtirish ularning uyi, oilasi hamjamiyat hayotiga ishtirok etish huquqiga to'sqinlik qiladi. Uyidan, oilasidan, ota-ona mehridan uzoqda bo'lgan bola diydasi qattiq bo'lib o'sadi. Chunki oila tarbiyaning bosh markazidir. Xar bir jamiyatda nogironlarga nisbatan yanglish fikr va munosabat juda yuqori edi. Ular haqidagi ma'lumotlar kamligi va ularni yoshligidan boshlab maxsus muassasalarda yopiq tarzda ta'lim va tarbiya berilishi bunga asosiy sabab bo'lgan. Bunday munosabatni yo'qotish va kamaytirish uchun turli amaliy tadbirlarni tashkil etish ancha mashaqatqli ishdur. Lekin tajribadan shu narsa ma'lumki, kattalarga nisbatan o'quvchilar farqli va o'xshashlik jihatlarni tezroq anglar ekanlar. Agarda maxsus ehtiyojli o'quvchilar normal rivojlanishdagi o'quvchilar bilan birgalikda ta'lim tarbiya olsalar, bu barcha o'quvchilarni nogironlarga nisbatan o'zlari singari bola ekanliklarni anglab, kamsitmasliklarini ta'minlagan bo'lar edi.

Inkoniyati cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllanganlikni diagnostika qilishda o'qitish muammolarini o'rganish natijasida uni bilimlarni integratsiyalashuvi asosida hal qilish zarurligi - bu o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllanganlikni turli faoliyati bilan belgilanadi.

Tuzilishi nuqtai nazaridan pedagogik modeli uni o'zgartirish hamda tuzatish imkonini beruvchi, faoliyat samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi va oson tashxis (diagnostika) qilinadigan tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi zarur. Ikki qismli tuzilmaga ega bo'lgan pedagogik modeli eng ko'p tarqalgan model hisoblanadi.

Model - bu turli sohasida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarning muvaffaqiyatli hal etilishini ta'minlovchi, ma'lum sifatlarni ta'riflovchi hamda uning mustaqil bilim olishi va o'zini rivojlantirishini aks ettiruvchi andoza hisoblanadi.

Ushbu modelni yaratishda faoliyatning ma'lum turi uchun muvofiq keladigan

shaxsiy sifatlar to'plami tartibga solinadi. Mutaxassis modelining turlaridan biri malakaviy tavsifnoma hisoblanadi. Uning mazmunida quyidagi holatlar aks etadi: har bir alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish uchun ularga xos bo'lgan faoliyat turlari, vazifa va majburiyatlar, shaxsiy sifatlar, bilim va ko'nikmalar. Bunday modellar ularni tanlash hamda joy-joyiga qo'yish, ularni sinovdan o'tkazish, shuningdek, ularni tayyorlash va dasturlar tuzishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quv jarayonida alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllanganlikni modellashtirish tamoyili. Modellashtirish bu bilish ob'ekting har xil modellarini yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir. Modellashtirish - biror narsaning modelini ishlamoq yoki yaratmoqdir.

Modellashtirish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirishda ta'lim-tarbiyani ilmiy asosda tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoniga (mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini o'zi tarbiya) va buni amalga oshirishda zamonaviy talablarni, o'quvchilar ehtiyojlari, o'quvchilar dunyoqarashi va boshlang'ich tushunchalari, mustaqil o'rganish uchun beriladigan topshiriqlar, o'quvchilarning imkoniyatlari, o'qitiladigan fan va o'rganiladigan mavzularning maqsadi, predmeti va ahamiyatini inobatga olish hamda ularga mos keluvchi ta'lim metodlarini tanlash, amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni va ularni amalga oshirish bosqichlarini belgilashi zarur. Modellashtirish orqali mazmun va maqsadlarni isbotlash uchun avval oson bilimlarni o'zlashtirish, o'qitish metodlarini o'quv rejasi va o'quv dasturi talablari asosida tanlash kerak. O'quv jarayonida keng tarmoqli ishchi faoliyati quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- a) bilim va malakani yo'naltirish;
- b) integratsiya asosida o'qitish
- v) ko'chirib o'qitish jarayoni.

Alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar shaxsi va faoliyatini modellashtirishga nisbatan yondashuvlarning turlicha bo'lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarda ijtimoiy hayotga tayyorgarlik tizimida shaxsiy kamoloti, shuningdek, kasbiy tayyorlash jarayonining modelini yaratish muammosi tadqiq etilmagan. Buyuk Britaniyalik olim M.Rozenberg to'qqiz yo'nalishi va ularga nisbatan qo'yiluvchi quyidagi talablarni ishlab chiqdi:

- O'quvchilarning talab va ehtiyojlarini bilish;
- Faoliyat samaradorligini baholay olish;
- Layoqatiga egalik;
- Kommunikabellik layoqatiga ega bo'lish;
- Qobiliyatiga egalik;
- Doimiy ravishda ijtimoiy hayotini takomillashtirib borishga erishish;

➤ O'z shaxsini madaniy jihatdan takomillashuviga erishish.

Inkoniya cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish modeli eng umumiy ma'lumotdan ma'lum bir ko'nikmaga qadar yaratilishi kerak. Eng keng tarqalgan - bu nazariy tahlil qilish uchun faktlar va hodisalarni o'rganish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan fikrlash va harakat qilish qobiliyatidir. Umumiy va o'ziga xos ko'nikmalarning asosi - bu empirik va nazariy darajalarda davom etadigan o'tish jarayoni.

Nazariy tayyorgarlikni namoyon qilish shakli - bu analitik, prognostik, loyihaviy, refleksiv ko'nikmalarga ega ekanligini taxmin qiladigan pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan qobiliyatida namoyon bo'ladigan nazariy faoliyat.

Bizning fikrimizcha, alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish modeli va o'quv jarayonini modulli tayyorlash printsipiga asoslanadigan pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga olishi kerak.

Modellashtirishning amaliy tatbiqi Inkoniya cheklangan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllantirish uchun o'quv modelini ishlab chiqishga asoslangan bo'lib, u didaktik faoliyatning barcha tarkibiy elementlarini ajratib olish, ushbu tarkibiy qismlarning inklyuziv ta'limi tizimi uchun ahamiyatini aniqlash va ular o'rtasida o'zaro bog'liqlikni o'rnatish: alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga ijobiy munosabatlarini shakllanganlikni hal qilinishi kerak bo'lgan odatiy vazifalarni aniqlash, tarmoqlarda yuqori malakali ishchilarni tayyorlashni ta'minlash; alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni faoliyatini har tomonlama qamrab oladigan o'quv va ishlab chiqarish maqsadlari va vazifalarini ularning asosida ishlab chiqish; ushbu vazifalarning o'quv tarkibidagi o'rnini aniqlash; har bir vazifani ko'rib chiqishda o'qitishning maqbul shakllari va usullarini tanlash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yuneskonning 2003 yil O'zbekistonda 2 - 4 oktyabr kunlaridagi «Inklyuziv ta'lim» ga oid seminari xujjatlari.
2. L.R Mo'minova, Ayupova M.Yu. Logopyediya. T., 1995
3. Roy Mark Konki "Inklyuziv sinflarda o'quvchilar ehtiyojlarini anglash va bu ehtiyojlarni qondirish" Toshkent-YuNESKO-2004yil
4. Sodiqova G.A., Nurkyeldiyeva D.A. Rivojlanishi orqada qolgan o'smirlar diagnostikasi (ma'ruzalar matni) T., 2001
5. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.
6. qizi Kamolova, A. O. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. Science and Education, 4(5), 988-992.

7. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O'smirlar o'rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari. *Science and Education*, 4(2), 969-972.
8. Kamolova, A. O. Q. (2023). Pedagoglik kasbi boshqa hamma kasblarning poydevoridir. *Science and Education*, 4(5), 988-992.
9. Karimov, J. J. O. G. L., & Kamalova, A. (2024). Yoshlar o'rtasida deviant xulq-atvor profilaktikasi. *Science and Education*, 5(2), 513-519.
10. Камалова, А. (2021). THE IMPORTANCE OF USING GAME TECHNOLOGY IN THE PROCESS OF EDUCATION. *Экономика и социум*, (3-2), 12-14.
11. Jo'Rakabirova, M. X. Q., & Kamalova, A. O. Q. (2024). Amir Temur va Temuriylar davrida pedagogik fikrlar taraqqiyoti va ta'lim tarbiya masalalarining bugungi kun ijtimoiy faoliyatdagi ahamiyati. *Science and Education*, 5(3), 490-494.
12. qizi Rustamova, G. Z. X. (2024). Boshlangich sinf o'quvchilarining maktabga intellektual tayyorgarlik muammosi. *Science and Education*, 5(5), 331-335.
13. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA: Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 22(5), 48-54.
14. Muhammadjon o'g'li, S. A. (2024). AQLI ZAIFLIKNING TURLARI, BELGILARI VA DIFFERENSIAL DIAGNOSTIKASI. *PEDAGOGS*, 52(1), 154-159.
15. qizi Mashhura, Z. B. (2024). TIFLOPEDAGOGIKA VA TIFLOPSIXOLOGIYANING UMUMIY MASALALARI. *Results of National Scientific Research International Journal*, 3(2), 170-177.
16. Qambaraliyeva, D. A. Q., & Siddiqov, A. M. O. G. L. (2024). Rivojlanishdan orqada qolgan bolalar nutqini o'stirish. *Science and Education*, 5(2), 525-531.
17. Otajonovna, M. M. (2023). BOLALAR SEREBRAL FALAJIDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *Uzbek Scholar Journal*, 19, 9-12.
18. М. А. Махсудова, & С. М. Жўраев (2021). ЗАМОНАВИЙ ШАХС МОДЕЛИНИ ЯРАТИШДА ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ ҚАРАШЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 1 (Special issue), 351-354.
19. Juraev, S. M. (2023). SHAHS STRUKTURASI VA MOTIVATION SOHA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *DUNYODA TA'LIM FAN VA INNOVATSION G'OYALAR*, 15 (5), 65-68.